

TAQLID SO‘ZLAR USLUBIYATI

¹**Tojimatov Rasuljon G‘anijonovich,**
University of Business and Science oliy ta’lim muassasi,
Til va adabiyot ta’limi kafedrası dotsent,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
rasuljontojimatov966@gmail.com

²**Holmurodova Nigora G‘anijonovna**
Andijon viloyati Baliqchi tumaniga qarashli
7-umum ta’lim maktabi Ingliz tili fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: O‘zbek tilidagi taqlid so‘zlarning uslubiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Taqlid so‘zlarning badiiy, og‘zaki va yozma nutqdagi o‘rni, ularning ekspressivlik va obrazlilikni kuchaytirishdagi roli yoritiladi. Shuningdek, taqlid so‘zlarning fonetik, semantik va stilistik jihatlari misollar asosida ochib beriladi. Tadqiqot natijalari taqlid so‘zlarning nutq ta’sirchanligini oshirishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: taqlid so‘zlar, uslubiyat, nutq ifodaliligi, ekspressivlik, badiiy til, fonetik vositalar.

Annotation: This annotation examines the stylistic features of onomatopoeic words in the Uzbek language. It analyzes their function in literary and spoken discourse, as well as their role in enhancing expressiveness and imagery. The phonetic, semantic, and stylistic aspects of onomatopoeic words are discussed with illustrative examples. The study highlights the significance of these words in increasing the emotional and expressive impact of speech.

Key words: onomatopoeic words, stylistics, speech expressiveness, emotiveness, literary language, phonetic devices.

Аннотация: В данной аннотации рассматриваются стилистические особенности звукоподражательных слов в узбекском языке. Анализируется их роль в художественной и разговорной речи, а также значение в усилении выразительности и образности высказывания. Особое внимание уделяется фонетическим, семантическим и стилистическим характеристикам звукоподражательных слов. Результаты исследования показывают их важность в повышении эмоционального воздействия речи.

Ключевые слова: звукоподражательные слова, стилистика, выразительность речи, экспрессивность, художественный язык, фонетические средства.

Taqlidiy so‘zlar obyektiv olamdagi narsa va hodisalar harakatining tovush tomoniga taqlid etish orqali yuzaga kelgan so‘zlardir. Taqlidiy so‘zlardan ifodalangan tovush jonli va jonsiz tabiatning harakatidan yuzaga keluvchi turli-tuman ovoz va ohanglardan iboratdir. Shunga ko‘ra taqlidiy so‘zlarni ikki katta guruhga ajratamiz: 1) Jonli tabiat tovushlariga taqlid qilingan tasviriy so‘zlar 2) Jonsiz tabiat tovushlariga taqlid qilingan tasviriy so‘zlar.

Jonli tabiat tovushlariga taqlid qilingan tasviriy so‘zlar. Bunday tasviriy so‘zlarning bir guruhi insonlar tovushiga taqlid qilish natijasida vujudga keladi. Bular ikki xil:

Insonlar nutqi va ruhiy holati bilan bog‘lik tovushlarga taqlid: xi-xi-x-xi, xa-xa-xa, pik-pik kabilar: - Lab-bay...xa...xa...a . Qizlar piq-piq qilishdi. Shov-shuv ko‘tarildi, hamma o‘sha tomonga yopirildi. Insonlar harakati va qo‘zgalonidan yuzaga keluvchi tovushlarga taqlid: gurr, gurs-gurs, tap-tap, dir-dir, dag‘-dag‘ .

So‘ridagilar gur etib qo‘zg‘alishdi.

Taqlidiy so‘zlarning bir guruhi qush va parrandalar tovushiga taqlid qilish natijasida vujudga kelgan. Qush va parrandalar ovozigina taqlid qilinadi: ku-ku-ku, chirq-chirq, ku-ku va boshqalar. Misollar: O‘sha jo‘ja bo‘ynini qimirlata olmay, chiyillab oyisining oldiga keldi: chiy-chiy, churk-churk, voy oyjon...

Qush va parrandalar harakati, uchishi, suzishi, cho‘chishi kabilardan yuzaga keluvchi tovushlarga taqlid qilinadi: Pir-pir, part, viz-viz, gur, pirr. Misol uchun keltiramiz.

Devpechak orasidan “part” etib bedana ko‘tarildi. Cho‘chib tushgan yigit yoqasini ochib tufladi.

... bir juft tustovuq “parr” etib ko‘kka ko‘tarildi. Hayvonlar ovozigiga hamda ularning harakati bilan bog‘liq tovushlarga taqlid qilinadi. ba, ba-ba, vov-vov, hang-hang, mov-mov, miyo-miyov, uv, u-u-v, xir, xir-xir, ma-ma, mo-mo, dik-dik kabilar. Masalan, allanarsalar chiy-chiy qiladi oy chiqqan payt edi deng, bunday qarasam, daraning o‘rtasidagi ko‘kalamzorda bir gala to‘ng‘iz. (qo‘y) Ma...ma... Salom ovchi ota! (Echki) Em...em... Salom, salom otaxon ! (Sigir) Mo...mo... Salom !

Chayladan nariroqda tumshig‘ini bag‘riga qisib, mudrab yotgan targ‘il dik etib o‘rnidan turib ketdi.

Mayda jonivor hamda hashoratlarning sharpalari va ovozlari taqlid qilinadi: ging –ging, vish, vish-vish, viz-viz, g‘ung-g‘ung va shu kabilar.

Sardor chigirtka birdan dahshatli chirillab yubordi. Shundan keyin atrofda ham “chirr-chirr” degan tovushlar eshitilaverdi.

Jonsiz tabiat tovushlariga taqlid qilingan tasviriy so‘zlar. Bu guruh taqlidiy so‘zlar Har xil jismlarning tovushlariga taqlid qilish natijasida vujudga keladi. Jismlarning bir-biriga urilishi, sinishi, qisilishi, ishqalinishi, uzilishi natijasida hosil bo‘lgan tovushga taqlid qilinadi: tak-tuk, tak, chik, chirt, chirt-chirt, shak, shak-shuk, taraq-turuq, dong-dung, ding-ding, duk-duk, pirs-pirs, kirs, kars-kurs, kirs-kirs, giyk-giyk, giyt-giyt, part va shu kabilar.

Masalan, shipning qayeridir “qirs” etdi, qayerdadir kaltakesak chirqilladi. (A.K) Eshik “g‘iyt” etdi. Bittasining tizzasiga qo‘yib surupni ochgan ham ediki, bir narsa “shiq” etib yerga tushdi. To‘rt yigit bilan to‘rt tarafa shoxlab ketgan quchoq sig‘maydigan yog‘ochlarga chiqib, uzun hoda bilan “qars-qars” qoqa berdi. Navisa uning piyozni g‘arch-g‘urch chaynab non bilan tushirayotganini zavqlanib tomosha qilarkan so‘zlarini mazmunini chaqishga urinardi.

Qattiq jismlarning havoda harakatidan yuzaga keluvchi tovushlarga taqlid qilinadi: ship-ship, chiv-chiv, shuv-shuv, guv-guv va boshqalar. Tepasidan, yonidan shuv-shuv uchib o‘tayotgan qushlar. Tevaragida qushlarning “chiv-chiv”i eshitildi. Shu ondan boshlab u kuzatishdan, o‘ylashdan, tushunishdan ojiz qoldi – yurakni uzib oladiganday mash‘um “uv” bilan bombalar uchdi. Yumshoq hamda elastik jismlarning bosilishi, siqilishi yoki fazodagi harakatidan paydo bo‘luvchi tovushlarga taqlid qilinadi: bilk-bilk, pilch-pilch, ship-ship, chip-chip, sulk-sulk va shu kabilar.

Misollar: Ko‘chaning bu beti erigan: chilp-chilp loy u beti metin o‘tmaydigan to‘ng. Oyog‘ining ostida yopishqoq loy chilp-chilp etadi, bexosdan botib, ko‘lop suv shaloplaydi. Suyuq jismlar harakati – oqimi, chayqalishi, tomishi, to‘lqinlashinishi, sochilishidan paydo bo‘luvchi tovushlarga taqlid qilinadi: lak-luk, lak-lak, lik-lik, kult-kult, shov-shov, vikir-vikir va boshqalar. Misollar: O‘ktam sovuq xushtam choyni qult-qult yutib, qo‘li bilan lablarini artdi ... Soy uncha katta bo‘lmasa ham nihoyatda tez oqar, “kulk –kulk” etgan tovushlar suv ostida katta – katta toshlar yumaloyotganini bildirib turar edi. (A.K). Buloq ham unga qo‘shilib jilmayayotganday jimirlaydi, vikir-vikir qiladi. Boyadan beri davom etayotgan eshkakning “shalp-shalp”iga qushlarning “shilp-shilp” etib suvga qadalishi qo‘shildi.

Gaz holatidagi jismlar harakati va portlashidan hosil bo‘lgan tovushlariga taqlid qilinadi: qars-qars, gup-gup, pis-s, vash-sh, g‘ir, g‘ir-g‘ir, poq, xuv-xuv, guv-guv va shu kabilar. Misollar: Havo dim, g‘ir etgan shabada yuk. (S.A). Silindrda gaz miltiq otganday qars-qurs portlaydi, g‘aldirak pokrishkalari beto‘xtov voshshillaydi: ... Porshenlar chekkasida gup-gup-gup aksi sado beradi. (S.A). Shunda shamol ajablanib xuvvi.. sen kimsan ? –deb so‘ragan ekan. Paxta karavot chetiga quyilgan samovar uzoq yo‘l bosib kelgan odamdek pish-pish nafas olardi, halqa-halqa tutun chiqarardi.

Turli mexanizm hamda texnikaviy asbob-uskunalar harakati va singnallaridan vujudga keluvchi tovushlarga taqlid qilinadi: d-u-d, pat-pat, ku-ku, tir-tir, gurr, shaq-shuq, pish, g‘ildir-g‘ildir, g‘ichir-g‘ichir va boshqalar. Misollar: yarim yo‘lga yetganda uzoqda qopqorayib gavdalanib turgan adir tomondan “kuuk” degan cho‘ziq tovush eshitildi (A.Q). Hama yokni “tir...r...r, tir...r...r” bosib ketdi.

Umuman olganda, taqlid so‘zlar borasida qilinishi kerak bo‘lgan, dolzarb ahamiyatga ega jihatlari juda ko‘p. Biz yuqorida uning ayrim qirralarigagina to‘xtalib o‘tdik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985.
2. Jamolxonov N. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2008. – 1-kitob. – B.6-12
3. Йўлдошев М. Бадиий матннинг лисоний таҳлили. – Тошкент, 2007. – Б.3.
4. Маҳмудов Н., Бегматов Э. Тилимизнинг кеча ва кундузи // Ўзбек тили ва адабиёти, 2010. – №5. – Б.11.
5. Миртожиев М.М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2010. – 228 б.
6. Неъматов Ҳ., Бозоров О. Тил ва нутқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – 32 б.
7. Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 128 б.
8. Нурмонов А., Искандарова Ш. Тилшунослик назарияси. – Тошкент: Фан, 2008. – 176 б.
9. Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. – Тошкент: Маънавият, 2004. – 160 б.
10. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 339 б.

